Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 37
PEDAGOGIKA

5K TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

Akmaljon Yusufovich Axmedov*
Farg'ona davlat universiteti Pedagogika kafedrasi o'qituvchisi
✉ akmal0086ahmedov@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada bo'lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish muammosi kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan va dialogik yondashuvlar uyg'unligida tadqiq etilgan. Kommunikativ kompetentlik pedagogik muloqotning maqsadini anglash, fikrni og'zaki, yozma va noverbal vositalarda aniq ifodalash, faol tinglash, hamkorlikda qaror qabul qilish, suhbatdoshning hissiy holati va ehtiyojini anglab, unga ko'mak berish hamda o'z kommunikativ faoliyatini refleksiv baholashni birlashtiruvchi integrativ kasbiy sifat sifatida talqin qilindi. Nazariy tahlil va pedagogik modellashtirish asosida 5K - Communication, Collaboration, Creativity, Critical Thinking va Compassion komponentlariga tayangan bosqichli texnologiya ishlab chiqildi. Texnologiyaning maqsadli, mazmuniy, jarayonli va baholash bloklari, didaktik shart-sharoitlari, metodlari hamda natija indikatorlari asoslandi. Taklif etilgan yechim kommunikativ ko'nikmalarni alohida mashqlar yig'indisi sifatida emas, real pedagogik vaziyatlarda namoyon bo'ladigan tizimli kasbiy kompetentlik sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar

bo'lajak pedagog, kommunikativ kompetentlik, pedagogik texnologiya, 5K modeli, Communication, Collaboration, Creativity, Critical Thinking, Compassion, pedagogik empatiya, refleksiya.

DOI: 10.5281/zenodo.21835539

KIRISH

Ta'limning raqamli, ochiq va ko'p madaniyatli muhitga aylanishi pedagogning kasbiy vazifalarini murakkablashtirmoqda. Zamonaviy o'qituvchi faqat o'quv axborotini bayon qiluvchi emas, balki muloqotni loyihalovchi, guruhiy hamkorlikni boshqaruvchi, nizolarni pedagogik yo'l bilan bartaraf etuvchi, o'quvchilarning turli fikrlarini uyg'unlashtiruvchi va raqamli makonda etik aloqani ta'minlovchi subyekt sifatida faoliyat yuritadi. Shu sababli pedagog tayyorlash natijasi bilimlar hajmi bilangina emas, mazkur bilimlarni aniq vaziyatda muloqot orqali maqsadga muvofiq qo'llay olish bilan ham belgilanadi.

Kommunikativ kompetensiya tushunchasining ilmiy ildizi til qoidalarini bilish bilan cheklanmay, ulardan ijtimoiy vaziyatga muvofiq foydalanish qobiliyatini ham qamrab olishi haqidagi D. Hymes g'oyalariga borib taqaladi [1]. M. Canale va M. Swain kommunikativ faoliyatda grammatik, sotsiolingvistik va strategik jihatlarning o'zaro bog'liqligini asoslagan [2]. Keyingi yondashuvlarda esa muloqot tinglash, o'zaro ta'sir, vositachilik, ko'p tillilik va ko'p madaniyatlilik bilan bog'liq faoliyat sifatida qaralmoqda [3]. Demak, bo'lajak pedagogning kommunikativ kompetentligi nutq texnikasidan kengroq bo'lib, kasbiy-pedagogik maqsad, mazmun, munosabat va refleksiyani bir butun tizimga birlashtiradi.

Amaldagi tayyorgarlikda kommunikativ ko'nikmalar ko'pincha nutq madaniyati, chet tili, pedagogik mahorat yoki axborot texnologiyalari fanlari doirasida parcha-parcha shakllantiriladi. Bunday fragmentarlik talabaning bilimini real dars, ota-ona bilan suhbat, hamkasblar hamkorligi yoki muammoli vaziyatga ko'chirishini qiyinlashtiradi. Mazkur ziddiyat kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning izchil, takrorlanuvchi va diagnostik jihatdan o'lchanadigan texnologiyasini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqotning maqsadi - 5K modeli asosida bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyasining tarkibiy tuzilishi, amalga oshirish bosqichlari, pedagogik shart-sharoitlari va baholash mezonlarini nazariy jihatdan asoslash. Tadqiqot savoli quyidagicha belgilandi: 5K komponentlari oliy pedagogik ta’lim jarayoniga qanday algoritm asosida integratsiya qilinsa, talabaning kasbiy muloqotdagi bilim, harakat va refleksiyasi yaxlit rivojlanadi?

METODOLOGIYA

Tadqiqot nazariy-metodologik xarakterga ega. Unda kommunikativ kompetensiyaga doir klassik va zamonaviy manbalarni tahlil qilish, tushunchalarni qiyoslash, tizimlashtirish, pedagogik modellashtirish va natija indikatorlarini operatsionallashtirish usullaridan foydalanildi. Metodologik asos sifatida kompetensiyaviy yondashuv natijani bilim, ko‘nikma, munosabat va qadriyatlarning vaziyatli birligi tarzida; faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuv kompetentlikni real vazifani bajarish jarayonida; shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv individual tajriba va refleksiyani; dialogik yondashuv esa ma’no hamkorlikda yaratilishini tushuntirish uchun qabul qilindi.

XXI asr ko‘nikmalari konsepsiyasida Communication (kommunikatsiya), Collaboration (hamkorlik), Creativity (kreativlik) va Critical Thinking (kritik fikrlash) o‘zaro bog‘langan tayanch natijalar sifatida e’tirof etiladi [4; 5]. Tadqiqotda 5K modeli ushbu to‘rt komponentga Compassionni (hamdardlik, g‘amxo‘rlik va yordamga yo‘nalgan munosabat) qo‘shish orqali operatsionlashtirildi. Empatiya boshqa shaxsning holatini anglash va his etish bilan bog‘liq bo‘lsa, Compassion bu anglashni uning qiyinchiligini yengillashtirishga qaratilgan motiv va amaliy harakat bilan davom ettiradi [8]. Pedagogik kontekstda Compassion talabaning ehtiyojini sezish, hukmsiz tinglash, ta’limdagi to‘siqlarni yumshatish va o‘z vaqtida ko‘mak berishga tayyorlikni bildiradi. Shu sababli mazkur tadqiqotda beshinchi K kommunikativ kompetentlikning insonparvar va qo‘llab-quvvatlovchi yo‘nalishini belgilovchi komponent sifatida qabul qilindi.

Muhim metodologik farq shundaki, 5K umumiy kompetensiyalar modeli, taklif etilayotgan yechim esa uni maqsad, mazmun, metod, vosita, bosqich va baholash mezonlari orqali amalga oshiruvchi pedagogik texnologiyadir. Shunday qilib, model «qaysi sifatlar rivojlanadi?» savoliga, texnologiya esa «ular qanday izchillik va sharoitda rivojlantiriladi?» savoliga javob beradi.

Natijalar.Nazariy tahlil natijasida bo‘lajak pedagogning kommunikativ kompetentligi motivatsion-qadriyatli, kognitiv, interaktiv, empatik-g‘amxo‘rlik va refleksiv-regulyativ komponentlar birligi sifatida aniqlandi. Motivatsion-qadriyatli komponent muloqotga ehtiyoj, hurmat va mas’uliyatni; kognitiv komponent pedagogik muloqot qonuniyatlari, nutq va raqamli etika haqidagi bilimlarni; interaktiv komponent aniq ifodalash, faol tinglash, savol berish, fikrni dalillash, kelishish va nizoni boshqarishni; empatik-g‘amxo‘rlik komponenti suhbatdoshning hissiy holati va ehtiyojini sezish, uning nuqtayi nazarini hukmsiz qabul qilish hamda qo‘llab-quvvatlovchi harakatni tanlashni; refleksiv-regulyativ komponent esa o‘z muloqotini rejalashtirish, kuzatish, baholash va tuzatishni qamrab oladi.

Ishlab chiqilgan texnologiya maqsadli, mazmuniy, jarayonli va natijaviy-baholash bloklaridan tashkil topadi. Maqsadli blok kutiladigan kompetensiya va o‘quv natijalarini belgilaydi. Mazmuniy blok pedagogik muloqot psixologiyasi, nutq madaniyati, noverbal aloqa, savol-javob strategiyalari, konfliktologiya, raqamli kommunikatsiya, pedagogik empatiya, Compassion va qo‘llab-quvvatlovchi muloqot modullarini birlashtiradi. Jarayonli blok talabani kuzatuvchidan faol muloqot subyektiga aylantiruvchi vazifalar ketma-ketligini ta’minlaydi. Natijaviy-baholash blokida esa mahsulot, xulq indikatorlari, rubrika va korreksion tavsiya o‘zaro bog‘lanadi.

1-jadval.

5K komponentlarining kommunikativ kompetentlikdagi funksiyasi

5K komponenti	Rivojlantirish vositalari	Kuzatiladigan natija indikatorlari
Communication	Mikrodars, pedagogik hikoya, intervyu, faol tinglash, savol tuzish, video-murojaat	Fikrning aniqligi va mantiqiyligi; tinglash va qayta ifodalash; verbal, noverbal hamda raqamli vositani vaziyatga mos tanlash

5K komponenti	Rivojlantirish vositalari	Kuzatiladigan natija indikatorlari
Collaboration	Juftlik va kichik guruh topshiriqlari, «jigsaw», hamkorlikdagi dars loyihasi, o‘zaro ekspertiza	Rol va mas’uliyatni taqsimlash; kelishuvga erishish; sherik hissasini qadrlash; konstruktiv fikr-mulohaza berish
Creativity	Muqobil dars ssenariysi, pedagogik improvizatsiya, metafora, raqamli hikoya, muammoli vaziyat uchun bir necha yechim	Muloqot strategiyalarining originalligi va vaziyatga mosligi; yangi g‘oyani tushunarli shaklda taqdim etish
Critical Thinking	Keys tahlili, dalil va taxminni ajratish, debat, «nima uchun?» savollari, mediaxabarni tekshirish	Dalillangan hukm; manbani baholash; stereotip va manipulyatsiyani aniqlash; qarorni izohlash
Compassion	Empatiya xaritasi, yordamga muhtoj talaba bilan suhbat, inklyuziv rol o‘yini, «Men-xabar», qo‘llab-quvvatlovchi qayta aloqa	Hissiy holat va ehtiyojni anglash; hukmsiz tinglash; mehribon va hurmatli javob; muammoni yengillashtiruvchi aniq ko‘makni taklif etish

Texnologiyani amalga oshirish algoritmi besh bosqichdan iborat. Birinchi — diagnostik-motivatsion bosqichda talabaning boshlang‘ich holati o‘zini baholash anketasi, vaziyatli topshiriq, qisqa nutq, faol tinglash testi va kuzatuv varag‘i orqali aniqlanadi; individual rivojlanish maqsadi belgilanadi. Ikkinchi - kognitiv-yo‘naltiruvchi bosqichda pedagogik muloqot me’yorlari, auditoriya xususiyatlari, dalillash, qayta aloqa va raqamli etikaga oid bilimlar muammoli ma’ruza hamda tahliliy seminarlar orqali o‘zlashtiriladi.

Uchinchi - interaktiv-amaliy bosqich texnologiyaning markaziy qismi bo‘lib, unda keys, rol o‘yini, debat, «akvarium», mikrodars, pedagogik improvizatsiya va video tahlil qo‘llanadi. Har bir topshiriq 5Kning kamida uch komponentini bir vaqtda ishga tushiradi. Masalan, ota-onaning e’tiroziga javob berish keysi kritik tahlilni, hurmatli kommunikatsiyani, muqobil yechim yaratishni, ota-onaning tashvishini tan olish va amaliy ko‘mak taklif etishni talab qiladi; guruhiy ekspertiza esa Collaborationni qo‘shadi. Shu tariqa ko‘nikma sun’iy ravishda ajratilmay, kasbiy faoliyat kontekstida integratsiyalashadi.

To‘rtinchi - loyiha-dialogik bosqichda talabalar kichik guruhlarda «samarali pedagogik muloqot» mavzusidagi mikrokurs, sinf soati, podkast, videodars yoki ota-onalar uchun kommunikativ qo‘llanma yaratadi. Guruh hajmi har bir a’zoning ishtirokini ko‘rsatish imkonini beradigan darajada saqlanadi; rollar almashadi, oraliq natijalar o‘zaro baholanadi. Beshinchi - refleksiv-baholash bosqichida boshlang‘ich va yakuniy mahsulotlar qiyoslanadi, video yozuv bo‘yicha o‘zini tahlil qilish, tengdosh fikri, o‘qituvchi rubrikasi va elektron portfoliodagi dalillar triangulyatsiyasi amalga oshiriladi. Talaba kuchli tomoni, rivojlanish ehtiyoji va keyingi kommunikativ vazifasini yozma refleksiyada belgilaydi.

Baholash uchun besh mezon taklif etildi: mazmuniy-mantiqiy aniqlik; interaktivlik va faol tinglash; hamkorlikdagi mas’uliyat; vaziyatga kreativ va kritik javob; empatiklik va qo‘llab-quvvatlovchi harakat. Har bir mezon reproduktiv, produktiv-vaziyatli va kreativ-refleksiv darajalarda tavsiflanadi. Reproduktiv darajada talaba tayyor namunaga tayanadi va muloqotni boshqarishda ko‘makka muhtoj. Produktiv-vaziyatli darajada u tanish kasbiy vaziyatda mos strategiyani mustaqil tanlaydi. Kreativ-refleksiv darajada esa notanish vaziyatni tahlil qiladi, strategiyalarni moslashtiradi, suhbatdoshlar manfaatini uyg‘unlashtiradi hamda natijani dalillar asosida baholaydi.

Texnologiyaning samarali ishlashi to‘rtta pedagogik shart-sharoitga bog‘liq: birinchidan, xato qilish va fikr bildirish xavfsiz bo‘lgan dialogik muhit; ikkinchidan, topshiriqlarning haqiqiy pedagogik faoliyatga kontekstual yaqinligi; uchinchidan, muntazam va mezonli qayta aloqa; to‘rtinchidan, auditoriya hamda raqamli muloqotning uyg‘unligi. Hamkorlik shunchaki guruhga bo‘lish emas, umumiy maqsad, individual javobgarlik, rol, o‘zaro bog‘liqlik va yakuniy refleksiya bilan tuzilgandagina kommunikativ natija beradi [9].

MUHOKAMA

Taklif etilgan texnologiyaning asosiy ilmiy jihati 5K komponentlarini parallel ro‘yxat sifatida emas, o‘zaro ta’sir qiluvchi mexanizm sifatida talqin etishdir. Communication ushbu tizimning namoyon bo‘lish maydoni bo‘lsa, Collaboration muloqotning ijtimoiy tashkilini, Critical Thinking uning dalilliligini, Creativity moslashuvchanligini, Compassion esa muloqotning insonparvarligini, ehtiyojga sezgirligini va yordamga yo‘nalganligini ta’minlaydi. Shu sababli bir komponentdagi o‘sish boshqalar bilan bog‘lanmasa, kasbiy kommunikativ kompetentlik barqaror shakllanmaydi.

Mazkur xulosa 4K ko‘nikmalari alohida emas, dinamik o‘zaro bog‘lanishda rivojlanishi haqidagi zamonaviy tahlillar bilan hamohang [5]. OECD Learning Compass kompetensiyani bilim, ko‘nikma, munosabat va qadriyatlarning birligi hamda notanish vaziyatda mas’uliyatli harakat qilish qobiliyati sifatida ko‘rishga undaydi [7]. Compassion empatiyadan keyingi amaliy qadam bo‘lib, tushunishni yordamga qaratilgan niyat va harakat bilan to‘ldiradi [8]. Pedagog uchun bu talqin ayniqsa muhim: u kommunikativ texnikani bilishi bilan birga, suhbatdoshning yoshi, ehtiyoji, madaniy tajribasi va vaziyatning axloqiy oqibatlarini hisobga olishi zarur. Hamkorlik pedagogikasi bo‘yicha tadqiqotlarda ham bo‘lajak o‘qituvchining kelishuvga erishish va murosaga tayyorligi kommunikativ qobiliyatlar bilan bevosita bog‘lanishi ko‘rsatilgan [10].

Texnologiyaning amaliy afzalligi uning fanlararo va modulli qo‘llanishidir. Uni alohida maxsus kurs sifatida, pedagogik mahorat faniga integratsiya qilib yoki pedagogik amaliyotning kommunikativ moduli shaklida joriy etish mumkin. Diagnostika - topshiriq - mahsulot - rubrika - refleksiya zanjiri o‘qituvchiga jarayonni kuzatish, talabaga esa o‘z rivojlanishini anglash imkonini beradi. Biroq maqolada keltirilgan natijalar nazariy modellashtirish mahsuli bo‘lib, ularni tayyor empirik samaradorlik ko‘rsatkichi sifatida talqin qilish mumkin emas. Keyingi bosqichda texnologiya tajriba va nazorat guruhlarida sinovdan o‘tkazilishi, rubrikaning ekspertlararo muvofiqligi, diagnostik vositalarning ishonchliligi hamda o‘zgarishlarning statistik ahamiyati tekshirilishi lozim.

XULOSA

Bo‘lajak pedagoglarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish faqat ravon nutq yoki axborot yetkazish malakasini shakllantirish bilan cheklanmaydi. U maqsadli tinglash, dalillangan fikr, hamkorlik, kreativ moslashuv, hamdardlik va g‘amxo‘rlikka asoslangan amaliy javob hamda refleksiv o‘zini boshqarishni real pedagogik vaziyatda birlashtirishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan 5K modeli kommunikativ kompetentlikning mazmuniy yo‘nalishlarini belgilash uchun samarali konseptual asos bo‘la oladi.

Ishlab chiqilgan texnologiya besh bosqichli algoritm, kasbiy kontekstli topshiriqlar, mahsulotga yo‘naltirilgan faoliyat, mezonli qayta aloqa va refleksiv baholashni o‘zaro bog‘laydi. Uning yangiligi Communication, Collaboration, Creativity, Critical Thinking va Compassionni bitta pedagogik vazifada integrativ faollashtirish, natijani esa kuzatiladigan indikatorlar orqali baholashdadir. Texnologiyani pedagogik amaliyot bilan uzviy bog‘lash va bosqichma-bosqich empirik tekshirish bo‘lajak pedagoglarning kasbiy muloqotga tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hymes, D. H. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics: Selected readings (pp. 269–293). Penguin.

2. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Applied Linguistics, 1(1), 1–47. https://doi.org/10.1093/applin/I.1.1

3. Council of Europe. (2020). Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment – Companion volume. Council of Europe Publishing.

4. Partnership for 21st Century Learning. (2019). Framework for 21st Century Learning. Battelle for Kids.

5. Thornhill-Miller, B., Camarda, A., Mercier, M., Burkhardt, J.-M., Morisseau, T., Bourgeois-Bougrine, S., Vinchon, F., El Hayek, S., Augereau-Landais, M., Mourey, F., Feybesse, C., Sundquist, D., & Lubart, T. (2023). Creativity, critical thinking, communication, and collaboration: Assessment, certification, and promotion of 21st century skills for the future of work and education. Journal of Intelligence, 11(3), 54. https://doi.org/10.3390/jintelligence11030054

6. Otamurodova, Sh. Q. (2025). Diversifikatsiya tamoyili asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kreativlik potensialini oshirish metodikasini takomillashtirish: PhD dissertatsiyasi avtoreferati. Termiz davlat universiteti.

7. OECD. (2019). OECD Learning Compass 2030: A series of concept notes. OECD Publishing.

8. OECD. (2024). Compassion: OECD Learning Compass 2030 construct note. OECD Publishing. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/topics/policy-issues/future-of-education-and-skills/learning-compass-constructs/Compassion.pdf

9. Education Endowment Foundation. (n.d.). Collaborative learning approaches: Teaching and Learning Toolkit. Retrieved July 30, 2026, from https://educationendowmentfoundation.org.uk/education-evidence/teaching-learning-toolkit/collaborative-learning-approaches

10. Franchuk, N., Karuk, I., Imber, V., Komarivska, N., Kazmirchuk, N., & Koval, T. (2024). Developing future primary school teachers’ communication through pedagogy of partnership. Journal of Education and Learning (EduLearn), 18(3), 609–617. https://doi.org/10.11591/edulearn.v18i3.21668